

TARJIMA NAZARIYASINING ASOSIY TAMOYILLARI

Ermatboyeva Shirinoy Xayrullo qizi

O'zbekiston jahon tillari universiteti 1-bosqich talabasi

Tarjimonlik fakulteti 2501-guruh

Tel raqami: +998501070735

E-mail: shirinermatboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarjima tushunchasi, uning tarixi va tarjima jarayonida muhim bo'lgan ekvivalentlik va uning darajalari, adekvatlik kabi asosiy tamoyillar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, tarjima tushunchasi, tarjima tarixi, ekvivalentlik turlari, adekvatlik.

Annotation. This article examines the concept of translation, its history, and the main principles that play an important role in the translation process, such as equivalence and its levels, as well as adequacy.

Keywords: translation, concept of translation, history of translation, types of equivalence, adequacy.

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятие перевода, его история, а также основные принципы, играющие важную роль в процессе перевода, такие как эквивалентность и её уровни, а также адекватность.

Ключевые слова: перевод, понятие перевода, история перевода, виды эквивалентности, адекватность.

Kirish

Tarjima bu asliyat tildagi matnni yoki nutqni tarjima yoki o'zining ona tiliga belgilangan qonun qoidalar yordamida o'girish jarayoni hisoblanadi va bu tushuncha ko'plab yillar oldin ham insonlarga turli masalalarda xizmat

qilgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, tarjimaning dastlabki ko'rinishi milloddan avvalgi 4-ming yilliklarga borib taqaladi. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra tarjima masalasini birinchi bo'lib tadqiq qilgan buyuk olim va mutafakkirlardan biri Aflotun hisoblanib, u o'zining "Fedr" nomli dialogida matnni boshqa tilga o'tkazish jarayonida manbaga sodiq qolish, ya'ni manba matnidagi asosiy ma'no-mazmunni, 2 maqsadni tubdan o'zgartirib yubormaslikka alohida e'tibor qaratish lozim ekanligini ta'kidlab o'tgan. Ayni shu davrdan boshlab bu tushuncha yillar, asrlar davomida rivojlanib, kengayib bordi hamda hozirgi kunga kelib turli xil talablarni ham ishlab chiqildi. Ushbu talablarga tarjima qilish uchun mos bo'lgan usul, uslub, tarjima qilish turini va tamoyillarini to'g'ri tanlay olish ham kiradi. Bundan tashqari tarjimonda ham turli xil mahorat va qobiliyatlar bo'lishi talab etiladi hamda ular fan tilida kompetensiyalar deb ataladi.

Asosiy qism

Tarjima tamoyillari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ularni ishlab chilishida, tarjimashunoslikni alohida bir nazariya sifatida o'rganilishida va ommaga tadbiiq etilishida taniqli tarjimashunos olimlar V.Komissarov, A.Fyodorov, L.Barxadurov, Q.Musayev, G'.Salomov, Yu.Nayda va boshqa bir qator professorlar chuqur izlanishlar olib bordilar va o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar. Ayniqsa, uyg'onish davriga kelganda milliy adabiyotlar ko'lamining kengayishi hamda milliy tillarning paydo bo'lishi tarjima sohasini yanada dolzarb va rang-barang bo'lishiga sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari, XIX asrga kelib tarjimani alohida bir yo'nalish, fan sifatida o'rganishga va bu jarayonda kelib chiqadigan muammolarga ko'proq e'tibor berila boshlandi. Ayni shu davrda tarjima masalalarini tadqiq qilish, yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish va baholashni bir tizim sifatida shakllantirildi.

O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar natijasida tamoyillarning asosiylaridan bir ekvivalentlik ekanligi isbotlandi. Ekvivalentlik bu asliyat matnidagi elementlar, ma'no va uslubni saqlagan holda tarjima tiliga moslashtirishdir. Tarjima qilish paytida ekvivalentlik talab etiladigan birinchi darajali zarurat yoki eng kerakli vosita

bo'lganligi sababli ko'pgina professional tarjimashunos olimlar uni tarjima qilishning asosiy sharti va belgisi ekanligini ta'kidlashadi. Shu bilan birga tarjimashunoslik sohasida asliyat matnning tarkibi va kontekstdagi farqlar tufayli to'liq ekvivalentlikka erishib bo'lmaydi degan xulosalar ham mavjud. V.N Komissarov olib borgan o'rganishlarining tahlili asosida ekvivalentlikni quyidagi 5 ta turga ajratgan: 3

I. Ekvivalentlikning birinchi turida asl matn va tarjima matni o'rtasida o'xshashlik juda kam miqdorda bo'lganligi uchun ikkala matnlardagi ma'nolar birbiriga umuman yaqin emasdek tuyuladi.

II. Bu ekvivalentlik turida ko'pchilik so'zlar va leksik birliklar orasida bevosita yaqinlik ko'zga tashlanmaydi, lekin birinchi turga nisbatan mazmun jihatdan ko'proq o'xshaydi.

III. Ekvivalentlik uchinchi turida esa quyidagi holat kuzatiladi, ya'ni tarjima qilishda foydalaniladigan ikki tilning mazmunan o'zaro mos ifoda maqsadi, leksik tarkibi va sintaktik qurilishlarida o'xshashlik holatlari kam uchraydi. Ammo qisman mazmuniy-vazifaviy uyg'unlikni yuzaga keltiradi.

IV. Bu ekvivalentlikning turida asliyat va tarjima matnlaridagi leksik tarkib va birliklar bir-biriga yaqin tarzda qo'llanadi. Hamda asl matndagi sintaktik qurilish ham tarjima matnida ham shu sintaktik qurilishga mos bo'lishini talab qiladi. V. Ushbu ekvivalentlik turi boshqalardan farqli ravishda asliyat matni va tarjima matnida yuqori darajada bo'ladi. Ya'ni bu turda ikkala matndagi leksik birliklar, sintaktik qurilish, mazmun va maqsadi jihatdan to'la uyg'unlikni namoyon qiladi. Adekvatlik ham ekvivalentlikning eng yuqori darajasiga yaqin bo'lib, nafaqat leksik, sintaktik tomonidan balki ohang, uslub va madaniy ta'sir jihatidan ham to'laqonli moslik tushunchasidir.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarjima turli tillar va madaniyatlar o'rtasida ko'pri bo'lib xizmat qiladi va bu jarayonda tarjimon yuqorida ko'rib chiqilgan ekvivalentlik, adekvatlik kabi muhim tushunchalarga amal qilgan holda

tarjima qilsa, matn yoki nutq barchaga birdek tushunarli, aniq va ravon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev U.R. Tarjima nazariyasi: o'quv qo'llanma. – Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2021.
2. Zamonaviy tarjima nazariyasining asosiy tushunchalari va tamoyillari // Xorijiy filologiya jurnali. – 2022. – №1. – URL: <https://samxorfil.uz/arxiv/1-2022/> (murojaat qilingan sana: 24.11.2025).
- 4
3. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – Москва: Высшая школа, 1990. – 253 с.
4. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – Москва: ЭТС, 2002. – 384 с.
5. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. – Москва: Высшая школа, 1983. – 303 с.
6. Бархударов Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. – Москва: Международные отношения, 1975. – 240 с.
7. Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. – 331 p.
8. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1982. – 218 p.